O‘ZBEK TILIDAGI INTERNET LEKSIKASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Turan Internation Universty Gumanitar fanlar va pedagogika Fakulteti
Boshlang’ich ta’lim Yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ikromova Azizaxon Isaqjon qizi

Turan International University Filologiya kafedrasi dotsenti v.b.(PhD)
Jonbo‘tayeva Zumradxon Abdujabborovna
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23553205

Annotatsiya: Ushbu maqaolada o‘zbek tilidagi internet liksikasining shakllanishi,rivohlanishiva zamonaviy til jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi.Internet va axborot-kommunikatsiya texnalogiyalarning jadval rivojlanishi natijasida o‘zbek tiliga yangi so‘z va atamalarning kirib kelishi,ularning o‘zlashishi hamda qo‘llanishi xususiyatlari yoritiladi.Internet leksikasining shakllanishida ingiliz tili va boshqa xorijiy tillarning ta’siri, yangi terminlarning o‘zbek yilidagi moslashuvi, qisqartmalar, neologizmlar va internet-slanglarining paydo bo‘lishi kabi jarayonlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, messenjirlar va onlayn platformalarning o‘zbek tili lug’at tarkibining boyishiga ta’sir ko‘rib chiqadi. Tadqiqot natijasida internet leksikasi o‘zbek tilining zamonaviy rivojlanishda muhim omillardan biri ekanligi asoslab beradi.

Kalit so‘zlar:o‘zbek tili,internet liksikasi,axborot texnalogiyalari, neologizm, o‘zlashma so‘zlar, internet-slang, termin, ijtimoiy tarmoqlar, leksik rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the formation, development, and role of Internet vocabulary in the Uzbek language in the modern linguistic process. It examines the emergence of new words and terms in the Uzbek language as a result of the rapid development of the Internet and information and communication technologies, as well as their adaptation and usage characteristics. Particular attention is paid to the influence of English and other foreign languages on the formation of Internet vocabulary, the adaptation of new terms to the Uzbek language, and the emergence of abbreviations, neologisms, and Internet slang. The article also examines the influence of social networks, messengers, and online platforms on the enrichment of the Uzbek vocabulary. The study concludes that Internet vocabulary is one of the important factors in the modern development of the Uzbek language.

Keywords: Uzbek language, Internet vocabulary, information technologies, neologism, loanwords, Internet slang, term, social networks, lexical development.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы формирования и развития интернет-лексики узбекского языка, а также её роль в современном языковом процессе. Рассматривается появление новых слов и терминов в узбекском языке в результате стремительного развития Интернета и информационно-коммуникационных технологий, а также особенности их освоения и употребления. Особое внимание уделяется влиянию английского и других иностранных языков на формирование интернет-лексики, адаптации новых терминов к узбекскому языку, а также возникновению сокращений,неологизмов и интернет-сленга. Кроме того, рассматривается

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

влияние социальных сетей, мессенджеров и онлайн-платформ на обогащение словарного состава узбекского языка. В результате исследования обосновывается, что интернет-лексика является одним из важных факторов современного развития узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, интернет-лексика, информационные технологии, неологизм, заимствованные слова, интернет-сленг, термин, социальные сети, лексическое развитие.

Til jamiyat hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, doimiy ravishda rivojlanib boradigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar tilning lug‘at tarkibida ham o‘z ifodasini topadi. Yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi, mavjud tushunchalarning mazmunan kengayishi va turli tillar o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishi leksik qatlamning boyishiga sabab bo‘ladi. O‘zbek tilining leksik tizimi ham tarixiy taraqqiyot davomida turli o‘zgarishlarni boshdan kechirgan. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida internet bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘z va atamalar kundalik nutqda keng qo‘llanmoqda. Bu holat internet leksikasini o‘rganish, uning shakllarinish omillari vat il taraqqiyotiga ta’sirini aniqlashni muhim vazifalardan birga aylantiradi.Maqolaning maqsadi o‘zbek tilidagi internet leksikasining shakllanish xususiyatlarini, lug’at tarkibining boyish usullari bilan aloqasini hamda zamonaviy nutqdagi o‘rnini tahlil qilishdan iborat.Leksikologiya tilining lug’at tarkibi, so‘zlarning ma’nosi, kelib chiqishi va qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga oid darsliklarida lug’at tarkibining rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlari va boshqa tillar bilan aloqalari orqali izohlanadi. Tilning lug’at boyishi,avvalo, yangi so‘zlar yaratish, mavjud so‘zlarning ma’nosini kengaytirish va boshqa tillardan birliklarni o‘zlashtirish orqali amalga oshadi. So‘z yasalishi jarayonida tilning o‘ziga xos grammatik va leksik imkoniyatlaridan foydalaniladi.O‘zlashma so‘zlar esa yangi tushunchalarni nomlash yoki xalqaro miqyosida qo‘llanadigan atamalarni ifodalashga xizmat qiladi.Internet leksikasining shakllanishida ushbu jarayonlarning barchasini kuzatish mumkin. Masalan,”tarmoq’’, “oyna’’ kabi so‘zlar turli kontekstlarda kompyuter va internet bilan bog’liq ma’nolarida qo‘llanadi. ’’Foydalanuvchi’’so‘zi esa axborot tizimi yoki raqamli xizmatdan foydalanadigan shaxsni ifodalashda ishlatiladi. Demak, internet leksikasi faqat yangi so‘zlardan iborat emas. U mavjud so‘zlarning yangi ma’nolarida qo‘llanishi, o‘zlashma birliklarning kirib kelishi va yangi terminlarning shakllanishi natijasida rivojlanadigan leksik qatlamlardir.Internet leksikasining shakllanishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi.Birinchi omil-texnologik taraqqiyotdir.Yangi dasrurlar, elektron xizmatlar va raqamli vositalarning paydo bo‘lishi ularni nomlashga ehtiyoj tug’diradi.Natijada yangi atamalar tilga keladi yoki mavjud so‘zlardan yangi terminlar hosil qilinadi.Ikkinchi omil-tillararo aloqa. Internet muhitida ingiliz tilidan olingan “internet’’, “sayt’’, “blog’’, “chat’’, ”onlayn’’ kabi birliklar keng tarqalgan. Bunday so‘zlar o‘zbek tilida qo‘llanish jarayonida tallafuz, yozuv va grammatik jihatidan tilning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashishi mumkin. Masalan, “blogerlar’’, “saytga’’, “onlayn darslar’’ shakllarida o‘zbek tilining grammatik vositalari ishlatiladi. Uchinchi omil-muloqot tezligi va qulaylikka intilish.Internetdagi norasmiy yozishmalarda ayrim so‘zlar qisqartirib yoziladi, gaplar ixchamlashtiriladi va og’zaki nutqda xos birliklar qo‘llanadi. Bunday holatlar, ayniqsa, tezkor xabar almashish jarayonida kuzatiladi. Shu bilan birga, internet leksikasining rivojlanishi faqat tashqi ta’sir bilan belgilanmaydi. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida tushunarli va qulay terminlar yaratish ham muhim ahamiyatga ega.O‘zbek tilidagi internet leksikasini bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni internet av axborot texnologiyalarga oid terminlar tashkil etadi. “Veb-sahifa’’, “qidiruv tizimi’’, “elektron pochta’’, “foydalanuvchi’’ va “ijtimoiy tarmoq’’ kabi birliklar muayyan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tushunchalarni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Ikkinchi guruhga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar kiradi. “Blog’’, “chat’’, “sayt’’ va “onlayn’’ kabi birliklar zamonaviy muloqotda keng qo‘llanadi. Ularning ishlatilishi tilning xalqaro axborot muhitdagi ishtirogi bilan bog’liq. Uchinchi guruhni qisqartmalar va ixcham shakllar tashkil etadi. Internet yozishmalarida ayrim so‘zlarning qisqartirilishi vaqtni tejashga yordam beradi. Biroq bunday shakllarning hammasi ham adabiy til me’yorlariga mos kelavermaydi. Shu sababli ularni rasmiy ularni rasmiy va norasmiy muloqot sharoitiga qarab qo‘llash mumkin. To‘rtinchi guruhga yangi ma’noda ishlatilayotgan so‘zlar va neologizmlar kiradi. Neologizm til taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan yangi so‘z yoki yangi ma’nodagi birlikdir. Internet bilan bog‘liq yangi tushunchalar paydo bo‘lishi natijasida lug‘at tarkibida shunday birliklarga ehtiyoj tug‘iladi.Mazkur guruhlar o‘zaro chambarchas bog‘liq. Ayrim o‘zlashma so‘zlar vaqt o‘tishi bilan o‘zbek tilining odatiy lug‘at tarkibiga singib ketishi, ayrim yangi terminlar esa muqobil o‘zbekcha ifodalar bilan almashtirilishi mumkin.Internet leksikasi o‘zbek tilining zamonaviy rivojlanishda muhim o‘rin tutadi. Avvalo, u yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatini kengaytiradi.Axborot texnologiyalari bilan bog’liq terminlarning shakllanishi ta’lim, ilm-fan va kasbiy muloqotda yangi mazmunlarni aniq ifodalashga yordam beradi. Bundan tashqari, internet muhitida o‘zbek tilida axborot yaratish va tarqatish imkoniyatlari kengaymoqda. Elektron darsliklar, raqamli lug’atlar va ta’lim platformalarida o‘zbek tilidagi terminlardan foydalanish tilning ilmiy va amaliy umkoniyatlarni oshiradi. Biroq ayrim muammolar ham mavjud. Bir tushunchaning turli shakllarda yozilishi, chet tilidagi atamalarning izohsiz ishlatilishi va norasmiy qisqartmalarning rasmiy matnlarga ko‘chishi nutqning aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun yangi atamalarni me’yorlashtirish, ularning ma’nosini izohlash va o‘zbekcha muqobillarini ishlab chiqish muhimdir. Internetda yozish madaniyatiga rioya qilish ham alohida ahamiyatga ega. Norasmiy yozishmalarda qo‘llanadigan qisqartmalarni ilmiy maqola, ariza, hisobot va boshqa rasmiy matnlarda ishlatish maqsadga muvofiq emas. Har bir nutq uslubining o‘ziga xos talablari mavjud bo‘lib, ularga rioya qilish adabiy til me’yorlarini saqlashga xizmat qiladi.Internet leksikasini o‘rganish o‘zbek tilining lug‘at tarkibidagi zamonaviy o‘zgarishlarni tushunish imkonini beradi. Bu jarayonda yangi so‘zlarning kelib chiqishi, ma’nosi, qo‘llanish doirasi va grammatik xususiyatlarini aniqlash muhimdir.Shuningdek, internet leksikasini tadqiq etishda an’anaviy leksikologiya va so‘z yasalishi nazariyalaridan foydalanish mumkin. Bunda yangi birliklarning qanday usulda hosil bo‘lgani, boshqa tildan o‘zlashtirilgani yoki mavjud so‘zning ma’nosi o‘zgargani tahlil qiladi. Internet texnologiyalarining rivojlanishi natijasida tilimizda yangi so‘z va atamalar paydo bo‘lmoqda, ayrim mavjud so‘zlar esa yangi ma’nolarda qo‘llanmoqda. Shu sababli internet leksikasini o‘rganish zamonaviy o‘zbek tilining rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, internet leksikasini tadqiq etishda an’anaviy leksikologiya va so‘z yasalishi nazariyalaridan foydalanish mumkin. Bunda yangi birliklarning qanday usulda hosil bo‘lgani, boshqa tildan o‘zlashtirilgani yoki mavjud so‘zning ma’nosi o‘zgargani tahlil qilinadi. Masalan, sayt, blog, chat, post kabi so‘zlar boshqa tillardan o‘zlashgan bo‘lsa, ijtimoiy tarmoq, qidiruv tizimi, elektron pochta kabi birliklar o‘zbek tilida tushunarli bo‘lgan so‘z birikmalari orqali ifodalanadi. nternet leksikasini o‘rganishning yana bir muhim jihati — o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbek tilining grammatik qoidalariga moslashishini aniqlashdir. Masalan, saytga, saytdan, postlar, blogerlar kabi shakllarda o‘zbek tiliga xos qo‘shimchalar qo‘llanadi. Bu holat boshqa tillardan kirib kelgan birliklarning o‘zbek tili grammatik tizimiga moslashib borayotganini korsatadi. Bundan tashqari, internet leksikasini o‘rganish adabiy til me’yorlarini saqlash va yozma nutq madaniyatini rivojlantirish uchun ham zarur. Ijtimoiy tarmoqlarda ayrim so‘zlarning qisqartirib yozilishi, imlo qoidalariga rioya qilinmasligi va chet tilidagi atamalarning ortiqcha ishlatilishi kuzatiladi. Masalan, norasmiy yozishmalarda “nma” shakli “nima” so‘zining qisqartmasi sifatida uchraydi. Bunday shakllar kundalik muloqotda ishlatilishi mumkin, ammo rasmiy va ilmiy matnlarda adabiy til me’yorlariga amal

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qilish lozim. O‘zbek tilidagi internet leksikasi zamonaviy til taraqqiyotining muhim ko‘rinishlaridan biridir. Uning shakllanishi texnologik yangiliklar, tillararo aloqalar, yangi tushunchalarga ehtiyoj va tilning ichki imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Internet leksikasi o‘zlashma so‘zlar, yangi terminlar, qisqartmalar va mavjud so‘zlarning yangi ma’nolarda qo‘llanishi orqali boyib bormoqda. Internet leksikasining rivojlanishi o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, terminlarni me’yorlashtirish va yozma nutq madaniyatiga rioya qilish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli yangi birliklarni lingvistik jihatdan o‘rganish, ularning o‘zbek tilidagi muqobillarini aniqlash va adabiy til me’yorlariga mos qo‘llanishini ta’minlash muhim hisoblanadi. Tadqiqot mavzusini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, internet leksikasi bir necha usul orqali boyib bormoqda. Jumladan, boshqa tillardan so‘zlarning o‘zlashtirilishi, o‘zbek tilidagi so‘zlar asosida yangi atamalarning shakllanishi va mavjud so‘zlarning yangi ma’nolarda qo‘llanishi ushbu jarayonning asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, sayt, blog, chat, post kabi so‘zlar internet muloqotida faol ishlatiladi. Ijtimoiy tarmoq, qidiruv tizimi, elektron pochta kabi birikmalar esa internetga oid tushunchalarni o‘zbek tilida ifodalash imkonini beradi. Internet leksikasining yana bir muhim xususiyati o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbek tilining grammatik qoidalariga moslashishidir. Saytga, saytdan, postlar, blogerlar kabi shakllar bunga misol bo‘la oladi. Bu holat internetga oid yangi birliklarning o‘zbek tilining grammatik tizimi bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarda ishlatilishi tilning semantik imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Internet leksikasining rivojlanishi tilshunoslik oldiga yangi vazifalarni ham qo‘ymoqda. Xususan, yangi atamalarning ma’nosini aniqlash, ularning yozilish shakllarini me’yorlashtirish, o‘zbekcha muqobillarini ishlab chiqish va nutqda to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlash muhim masalalardan hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan qisqartmalar va norasmiy yozuv shakllarini adabiy til me’yorlaridan farqlash zarur.

Shuningdek, internet leksikasini o‘rganishda o‘zbek tilining leksikologiyasi, so‘z yasalishi va semantikasi bo‘yicha nazariy qarashlardan foydalanish muhimdir. Bu orqali yangi so‘zlarning kelib chiqishi, tuzilishi, ma’nosi va qo‘llanish xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish mumkin. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar zamonaviy o‘zbek tilining lug‘at boyligini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi. Umuman olganda, internet leksikasi o‘zbek tilining zamonaviy rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi muhim qatlamdir. Uning boyib borishi tabiiy til taraqqiyotining bir qismi bo‘lib, yangi tushunchalarni ifodalash va axborot almashinuvini osonlashtirishga yordam beradi. Shu sababli internet leksikasini ilmiy jihatdan o‘rganish, yangi atamalardan o‘rinli foydalanish hamda o‘zbek tilining adabiy me’yorlarini saqlashga alohida e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: ILM ZIYO, 2010.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
3. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
5. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. — Toshkent: Fan, 2010.20:23
6. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. — Toshkent: Fan, 1985. — 200 b.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Talqin, 2005. — 272 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.